

## DORIVOR O'SIMLIKLARDAN OLINGAN SELEN ASOSIDA BIOLOGIK FAOL MODDALAR YARATISH VA UNING ORGANIZM UCHUN FOYDALI XUSUSIYATLARI

**Xoljigitov Xushnud Toshtemir o'g'li**

*Samarqand davlat tibbiyot*

*universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Tibbiyotda dorivor o'simliklarga va ulardan olinadigan preparatlarga bo'lgan talabning oshishiga sabab sintez yo'li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatni uzoq vaqt uzluksiz ravishda iste'mol qilish inson va hayvonlar organizmida turli ko'ngilsiz o'zgarishlarga olib kelishidir. Bugungi kunda samaradorligi yuqori bo'lgan, kamzaxarlovchi, oson o'zlashtiriladigan selen birikmalarini izlash ayni kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Kelajakda tibbiyotda o'simliklardan olinadigan dorivor preparatlar va dorivor o'simliklar ko'proq ishlatilishi kutilmoqda. Tibbiyotda qo'llaniladigan dorivor vositalarning 38—40 % ini o'simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *dorivor o'simliklar, neytron-aktivatsion taxlil, selen, kasalliklar.*

Tibbiyotda ma'lum kasallikni davolash hamda shu kasalliklarning oldini olish uchun ishlatiladigan o'simliklar dorivor o'simliklar deb ataladi. Kasallikni davolash va uni oldini olish maqsadida dorivor o'simliklardan dori turlari tayyorlanadi yoki ulardan dorivor preparatlar va sof holdagi dorivor moddalar olinadi. Jahon fani va tajribasi e'tirof etgan Mendeleyev davriy sistemasida joylashgan elementlarning aksariyati Respublikamizdan topilganligini alohida ta'kidlash joizdir. Manbaalarda ko'rsatilishicha, vodiya 2700 ga yaqin yuksak o'simliklar tarqalgan. Shulardan 1400 tasi dorivor o'simliklar hisoblanadi.[1]Neytron-aktivatsion taxlil usuli Janubiy-Farg'onada o'suvchi 80-turdagi dorivor o'simliklar tarkibidagi selen mikroelementining mavjudligi namoyon bo'ldi.

Мать-и-мачеха( oqqaldirmoq ) -Tussilago farfara L, кумин( sariq zira ) - Cuminum L., ромашка аптечная( moychechak ) - Matricaria recutita, бессмертник, или тмин песчаный( o'lmasgul ) - Helichrysum arenarium, зверобой продырявленный( teshik dalachoy ) - Hypericum perforatum, девясил высокий( qora andiz ) — Inula helenium L., sudraluvchi langaritlar, dorivor valeriana, dorivor limono't kabi o'simliklar tarkibida katta miqdorda (0,5-1,2 mg/kg) selen borligi aniqlanib, organizmda selen moddasi yetishmovchiligi bilan bog'liq turli kasalliklarni davolashda yordam bermoqda. Yuqorida keltirilgan o'simliklar tarkibidagi makro va mikro elementlar miqdori O'zbekiston Fanlar akademiyasidagi yadro fizikasi laboratoriyasida neytron-aktivatsion taxlil metodi orqali aniqladik.[2,3] Bizga ma'lumki, inson organizmida selen moddasi yetish movchiligida organizmdagi o'ta muhim bo'lgan antioksidant himoya tizimi umuman ishlamaydi. Selen yetishmashligi faqatgina immunitetni susayishi va ishchanlik qobiliyatini yo'qolishiga olib

kelmasdan balki, yurak-qon va onkologik kasalliklarning rivojlanishiga, organizmda og'ir metallarning to'planishiga va erta qarishiga, qandli diabet, bo'g'im kasalliklari, erkaklar bepushtligi hamda ayollarda tug'ruqdagi ojizlikka ham sabab bo'ladi.[4] Selen organizmning hayoti uchun zarur 30 dan ortiq biologik faol moddalar tarkibiga kiradi. Selen saqlovchi preparatlar organizmdagi ko'plab jarayonlarni boshqarish imkonini beradi.

Hozirgi kunda insonning ko'plab saraton, ateroskleroz, artrit, yurak-qon tomir va asosan onkologik kasalliklari singari surunkali kasalliklar selenning tanqisligi bilan bog'lanadi.

Xulosa: Bunday kasalliklarni davolashda turli sintetik preparatlardan muvaffaqiyatli foydalanib kelinmoqda, lekin oxirgi 10 yillikda butun dunyoda, shuningdek, O'zbekistonda ham yuqoridagi kasalliklarni davolashda dorivor o'simliklardan foydalanishga katta e'tibor berilmoqda. Lekin hozirda iste'mol qilayotgan ko'plab mahsulotlar tarkibida selen juda kam uchraydi. Buning sababi, tuproq tarkibida selenning juda oz miqdorda bo'lishidir. Kunlik ehtiyojni oz ekanligiga qaramay, odatdagi ovqat ratsioni organizmga selenni yetarlicha kirishini ta'minlay olmaydi. Bu holatdan chiqish yo'llaridan biri selen asosidagi biologik qo'shimchalarni qabul qilishdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farmakognoziya va botanika asoslari, „O'qituvchi“ Toshkent — 2017. 335-b.
2. Авцын А.П. и др. Микроэлементозы человека: этиология, классификация, органопатология. - М., Медицина, 1991.— 496 с.
3. Струтынский А.В. Внутренние болезни. Сердечно-сосудистая система. — М.: Бином-пресс, 2007. — 856 с.